

Мавзусидаги илмий-амалий  
анжуман материаллари

АКАДЕМИК БОТИРХОН ВАЛИХЎЖАЕВ  
ВА МУМТОЗ АДАБИЁТШУНОСЛИК



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
ШАРОФ РАШИДОВ НОМИДАГИ  
САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ



АКАДЕМИК БОТИРХОН ВАЛИХЎЖАЕВ  
ВА МУМТОЗ АДАБИЁТШУНОСЛИК

*мавзусидаги илмий-амалий анжуман  
материаллари  
(Самарқанд, 20.05.2022 й)*



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ**

**ШАРОФ РАШИДОВ НОМИДАГИ  
САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**“АКАДЕМИК БОТИРХОН ВАЛИХЎЖАЕВ ВА  
МУМТОЗ АДАБИЁТШУНОСЛИК”  
мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари  
(Самарқанд, 20.05.2022 й)**

**Самарқанд – 2022**

**Eshonqulov Husniddin Pirimovich,**  
filologiya fanlari doktori (DSc), Buxoro davlat universiteti,  
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи.

## **B.VALIXO`JAYEV NUKTADONLIGINING AYRIM JIHATLARI XUSUSIDA**

**Annotatsiya:** Maqolada akademik Botirxon Valixo‘jayevning “Malik ul-kalom mavlono Lutfiy” kitobida shoirning hayoti va ijodiga oid manbalardagi dalillardan tarixiylik tamoyiliga tayanib, nihoyatda sinchkovlik bilan foydalangani, teran ilmiy mushohadalari asosida muhim xulosalarni bayon etgani xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Mavlono Lutfiy, tug‘ilgan va vafot yillari, tug‘ilgan va vafoti joyi, tarjimayi holiga doir chizgilar, asarlari, Lutfiy she’riyatining janrlari, Lutfiyning badiiy mahorati.

### **REGARDING SOME OF THE PECULIARITIES OF VALIKHOJAYEV'S DEEP PERCEPTION**

**Annotation:** This article illustrates that in his manual "Malik ul-kalom Mevlana Lutfi" academician Botirkhon Valikhojayev used the evidence from the sources on the life and work of the poet very carefully, based on historical principles, and made important conclusions based on in-depth scientific observations.

**Key words:** Mevlana Lutfi, years of birth and death, place of birth and death, biographies, works, genres of Lutfi's poetry, Lutfi's artistic skills.

Ulug‘ ustoz, akademik Botirxon Valixo‘jayev nuktapardozlig‘ – chuqur ma’noli so‘zlar aytish qobiliyati bilan o‘zbek va fors-tojik tilida bitilgan adabiy, tarixiy, ilmiy manbalardagi ma’lumot, dalil, nazm va nasrdagi badiiyat namunalarni nuktadonlik – nozik fahmlilik bilan teran idrok etgan, nihoyatda benazir, zukko olim edilar. Taniqli adabiyotshunosning ilmiy tadqiqotlarida rus, ingliz, turk va boshqa tillarda yozilgan mavzuga oid ilmiy manbalarga ham tez-tez murojaat etib borilgani ko‘zga tashlanadi. Ayni jihatlar bilan yaqindan tanish bo‘lgan yirik navoiyshunos R.J.Vohidov ustozga bag‘ishlangan “*Samarqandning ilmiy vijdoni*” kitobida quyidagi fikrlarni bayon etadi: “*U o‘zbek, tojik,*

*rus tillarida mukammal fikrlaydi, ravon yoza oladi. Boturxon domla bag‘ri keng, ezgulik va ma’rifat yog‘dusiga katta ishonch qo‘ygan baynalmilalchi olim”* [Воҳидов Р, 2005: 23]. B.Valixo‘jayevdagi bu noyob qobiliyat taniqli olimning “O‘zbek adabiyoti tarixi” [Валихўжаев Б. 2002 (а); Валихўжаев Б. 2002 (б); Валихўжаев Ботирхон ва Қобилжон Тоҳиров. 2002.] sarlavhali o‘quv qo‘llanmalari va “Mumtoz siymolar” [Валихўжаев Б. 2002 (д); Valixo‘jayev B. 2002 (е).] deb nomlangan monografiyalarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbek adabiyotshunosligida tarjimayi holi, asarlari bilan bog‘liq masalalarda munozalarga sabab bo‘lgan Mavlono Lutfiyning hayoti, ijodi, shoirlik mahorati xususida bitilgan B.Valixo‘jayevning “Malik ul-kalom Mavlono Lutfiy” nomli monografiyasida [Valixo‘jayev B. 2002 (e): 84-173] qo‘yilgan masalalarni tarixiylik tamoyillari asosida hal etishda, ma’lumot va dalillarni o‘z o‘rnida ishlatishda olimning nuktadonligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

“Malik ul-kalom” Mavlono Lutfiyning tug‘ilgan va vafot etgan sanalari xususidagi E.Ahmadxo‘jayev va boshqa olimlar, shuningdek, turk olimi Ismoil Hikmat Ertaylonning qarashlari akademik B.Valixo‘jayevni qiziqtirgani holda, olim tarixiy manbalardagi ma’lumotlarni qayta tahlil jarayoniga tortib ko‘radi. Akbarshoh hukmronligi davrida Hindistonda 990-h. – 1582-m.da yozilgan Abdulloh Kobuliyning “Tazkirat ut-tavorix” asarida biror bir asosi keltirilmay, shoirning tavallud sanasi hijriy 897-yil sha’bon oyining 17-kuni tarzida keltirilgani va Alisher Navoiy tomonidan Mavlono Lutfiyning 99 yil yashaganining e’tirof etilgani Ismoil Ertaylonning bu ulug‘ ijodkorning tug‘ilgan sanasini 797-h. – 1395-m. vafotini esa 897-h. – 1492-m. tarzida belgilashiga asos bo‘lganini ma’lum qiladi. Shuningdek, A.O‘rinboyevning “Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari qo‘lyolmasi” nomli maqolasida ham shoirning vafot etgan sanasi 1492-yil tarzida keltirganini eslatib o‘tadi. Shoirning hayoti va ijodiga doir bir qator tadqiqotlar olib borgan Erkin Ahmadxo‘jayev va Sodirxon Erkinov qarashlariga ko‘ra, Mavlono Lutfiyning 1366-1465 yillarda yashab ijod etganiga ham e’tiborni qaratadi. Biroq nuktadon olim, akademik B.Valixo‘jayevning fikriga ko‘ra, Mavlono Lutfiyning yashab ijod etgan yillariga oid taxminiy bildirilgan har ikkala qarash ham haqiqatdan uzoqroqdir [Valixo‘jayev B. 2002 (e): 87-89]. E’tiborli jihat shundaki, taniqli olim masala yuzasidan bildirilgan mulohazalarni keskin rad etmaydi. Hattoki, “haqiqatdan uzoq” deyish ham ko‘ngilga tegishi mumkinligini inobatga olib, “haqiqatdan uzoqroqdir” deya baho beradi.

Mavlono Lutfiyning yashagan davri xususidagi taxminiy fikrlarning “*haqiqatdan uzoqroq*”ligi dastlab 1491-yilda birinchi tahriri yozilgan “Majolis un-nafois” ikkinchi majlisining sarlavhasi asosida dalillashga kirishiladi. Ushbu sarlavhadan Mavlono Lutfiy ham Sakkokiy, Atoyi, Muqimiy singari shoirlar qatorida Alisher Navoiy ta’biri bilan aytganda, “*bu fano domgohidin baqo oromgohiga*” borgani ayonlashib qoladi. 1486-1487 yillarda yozib tugatilgan Davlatshoh Samarcandiyning “Tazkirat ush-shuaro”sida muallifning Alisher Navoiyga bag‘ishlangan mulamma’siga o‘rin berilgan bo‘lib, undagi “*Turkiysin ko‘rub qilurlar erdi tark-u tavba ham, Gar tirik bo‘lsalar erdi Lutfiy birla Kardariy*” bayti Mavlono Lutfiyning vafot sanasini Ismoil Ertaylon ko‘rsatgan sanadan 5-6 yil oldin sodir bo‘lganiga ishora qiladi. Ta’kidlash lozimki, bu manbalar Mavlono Lutfiyni yaqindan bilgan XV asrning ulug‘ shoir va tazkiranavislari tomonidan keltirilgan. Taniqli olim bu muhim ma’lumotlarga tayanib, Abdulloh Kobuliyning “Tazkirat ut-tavorix” asarida keltirilgan shoirning tavallud sanasi va undan kelib chiqib, Ismoil Ertaylon tomonidan muomilaga kiritilgan vafot sanasi, ya’ni m. 1492-yilning haqiqatdan uzoqroqligini dalillaydi. Shundan so‘ng o‘zbek adabiyotshunoslari S.Erkinov va E.Ahmadxo‘jayevlarning Mavlono Lutfiyning tavallud va vafot sanalarini taxminan 1366-1465 tarzida belgilaganliklari masalasiga e’tibor qaratiladi.

Bu taxminiy sanalarga e’tiroz Alisher Navoiyning ma’lumotiga ko‘ra, Mavlono Lutfiyning hijriy qamariy hisob bilan to‘qson to‘qqiz yil umr ko‘rgani haqidagi ma’lumotni E.Ahmadxo‘jayev va boshqalar tomonidan melodiy hisobga aynan olib kirilgani tufayli yuzaga keladi. B.Valixo‘jayev Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonini hijriy 904-yilda yozgan bo‘lib, unda “*Oltmishqa umr qoyg‘onda qadam, Qush tilin sharh etkali yo‘ndim qalam*” bayti bilan hijriy-qamariy hisobga ko‘ra, oltmishta kirganini e’tirof etganiga e’tiborni qaratadi. Holbuki, ulug‘ shoir bu yilda melodiy hisobga ko‘ra, 57-58-yoshlarda edi. Shu tariqa melodiy yuz yilga nisbatan hijriy-qamariy yil hisobi 103 yilga to‘g‘ri kelishini taniqli olim mulohazakorlik bilan ma’lum qiladi va bu taxminiy sana 1366-1463 tarzida ko‘rsatilgani ma’qulroq ekanligini qayd etib o‘tadi [Valixo‘jayev B. 2002 (e): 90-91]. Biroq bu taxminiy qarashlar ham “*haqiqatdan uzoqroq*” edi. Akademik B.Valixo‘yev “Badoyi’ ul-bidoya” devoni “Debocha”sidagi ma’lumotlarga tayanib mulohazalariga oydinlik kiritadi. Unda ulug‘ shoir o‘ziga qadar devon tartib bergen shoirlarni ikki guruhga: “*baqo mulkiga fonyi*” - abadiylikka qo‘silib ketganlar, ya’ni vafot etganlar hamda “*holo fano dayrida boqiyalar*” – hamon fano

mayxonasida boqiyalar, ya’ni tiriklarga ajratadi. Abdurahmon Jomiy, Mavlono Sakkokiy, Mavlono Lutfiy va Shayxim Suhayliylarni “*holo fano dayrida boqiyalar*” sifatida tanishtiradi. Akademik B. Valixo‘jayev bu ma’lumotlar ko‘pgina adabiyotshunoslr tomonidan e’tirof etilgan bo‘lsada, undagi bir nozik ishora e’tibordan chetda qolganini ta’kidlaydi. Olimning fikriga ko‘ra, “Badoyi’ ul-bidoya” “Debocha”si 1478-79 yillarda yozilgan bo‘lsa, bu paytda nomlari qayd etilgan shoirlar qatorida Mavlono Lutfiy ham hayot qaydida bo‘lgan. Shundan kelib chiqib, nuktadon adabiyotshunos shoirning tug‘ilgan sanasini 1385-1386, vafot sanasini esa 1482-1483 yillar tarzida taxminiy belgilaydi. Holbuki, bu taxmin, yuqorida ta’kidlanganidek, Alisher Navoiy va Davlatshoh Samarqandiy singari Mavlono Lutfiyni yaqindan bilgan XV asrning buyuk shoir va tazkiraganislari tomonidan qayd etilgan ma’lumotlarga asoslanganini inobatga olsak, uning haqiqatga nihoyatda yaqinligiga shubha qilish qiyin. Shunday bo‘lsa-da, taniqli olim o‘zi sinchiklab o‘rganib, shoir yashagan yillar haqidagi mulohazalarini kitobda uchinchi taxmin sifatida tavsiya qiladi, xolos. Bu esa taniqli adabiyotshunosgagina xos nihoyatda kamtarligining bir nishonasidir.

Mavlono Lutfiyning tug‘ilgan joyi masalasi ham akademik B. Valixo‘jayevni qiziqtirib qo‘yan. Ma’lumki, 1437-yilda yozilgan Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs‘a” asarida “*ma’dan ul-latoyif Lutfiyi Shoshiy*” hamda “*Lutfiyi Shoshiy aytur*” singari ta’rif-u jumlalar keltirilgan. Taniqli olim “Funun ul-balogs‘a” asari bilan shaxsan tanish bo‘la olmaganini, bu boraadgi fikrlari A. Hayitmetovning 1998-yil 17-aprelda “O‘zbekiston adaboyoti va san’ati” gazetasida e’lon qilingan “Dilimizga juda yaqin” maqolasi asosida bayon etilayotganligini ta’kidlab o‘tadi. Shunday bo‘lsa-da, adabiyotshunos Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asaridan ikki iqtibos va “Badoyi’ ul-bidoya” “Debocha”sidan bir parchani keltirib [Valixo‘jayev B. 2002 (e): 94], tahlilga tortadi. Xususan, “Majolis un-nafois”dagi “*Mutaqaddim turkigo‘y shuarodin xoh Mavlono Lutfiy va xoh Mavlono Sakkokiykim, Movarounnahrda malik ul-kalom erdilar*” jumlesi B. Valixo‘jayevga Mavlono Lutfiyning Shoh, ya’ni Toshkentda tug‘ilgani haqidagi taxminni quvvatlantirish imkonini beradi. Biroq nuktadon olim bir necha ma’lumot va dalillarni, yuqorida kuzatilganidek, qiyosiy o‘rganmasdan xulosaga kelishga o‘rganmagan edi. Shu bois u “Funun ul-balogs‘a”da Lutfiyga nisbatan qo‘llangan ta’rif va jumlalarda “Mavlono” so‘zining qo‘llanmaganiga e’tiborni qaratadi. Bu so‘z, ehtimol XV asrning II yarmidan qo‘llanila boshlagandir, degan mulohazaga ham keladi. Taniqli

adabiyotshunosning “Funun ul-balogs” bilan yaqindan tanisha olmaganligi shoirning vatani haqida muhim ilmiy xulosalarni bayon etishiga imkon bermaydi. Shunday bo‘lsa-da, uning “Majolis un-nafois”dagi qaydlarga tayanibgina qolmaganligi ahamiyatlidir. Nuktadon olimga xos bunday sinchkovlik shogirdlar tarafidan izchil davom ettirilib, “Funun ul-balogs”dagi ma’lumotlar Alisher Navoiy asarlaridagi qaydlar bilan B.Valixo‘jayev uslublariga xos tarzda tahlilga tortilsa, o‘ylaymizki, bu borada muayyan xulosalarga kelish mumkin.

Ustoz B.Valixo‘jayev Mavlono Lutfiyning tarjimayi holiga oid chizgilarni shoirning o‘z lirik merosidan qidiradi. Shoir she’rlarida Turkiston, Chig‘atoj, Samarqand, Amu, Hiro, Qorabog‘, Aras, Qrim, Kobul, Iroq singari joy nomlari uchrashiga alohida e’tibor qaratadi. Uning Hirot shahri chekasidagi Dehi Kanor qishlog‘ida turg‘un bo‘lib qolguniga qadar Movarounnahr, Turkiston, Xuroson va Iroqqa sahoyatlarda bo‘lgani haqida olimning mulohazalari o‘quvchiga qiziqish uyg‘otadi. Eng muhimi, B.Valixo‘jayev Mavlono Lutfiyning Dehi Kanorda turg‘un bo‘lib qolishini taxminan 1426-1427 yillar tarzida belgilaydi. Taniqli adabiyotshunos bunday xulosaga kelish uchun shoirning Shohrux mirzo va uning o‘g‘li Boysung‘ur mirzoga yozgan qasidalariga hamda Boysung‘ur mirzoning nafaqat Hirotda, balki Movarounnahrda ham mashhur bo‘lgan akademiyasi shakllanganligiga tayanadi. Mavlono Lutfiyning Boysung‘ur mirzoga bag‘ishlangan 27 baytli va Shohrux mirzoning tuzalishi munosabati bilan yozilgan qasidadan iqtiboslar tahlilga tortilib, bunday qasidalarini yozish uchun shoirning aynan Hirotda bo‘lgani xususida xulosaga kelinadi [Valixo‘jayev B. 2002 (e): 95-99].

Mavlono Lutfiyning Hirot shahrida uyuştirilgan adabiy yig‘inlar, mushoiralarga ishtirok etishi, uning turli Sharq tillarining bilishi kabi masalalar ham nuktadon olimning e’tiboridan chetda qolmagan. Shuningdek, u shoirning devoni, nusxalar, uning janriy tarkibi, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarini turkiyda masnaviyda tarjima qilganligi xususida ham nihoyatda aniq ma’lumotlarni, tahlillar asosida muhim taxminiy mulohazalarni o‘rtaga tashlaydi. Olim Faxriddin Ali Safiyning “Latoyif at-tavoyif” asaridagi ma’lumotlarga tayangan holda Mavlono Lutfiy Boysung‘ur mirzoning taklifi bilan Muzaffar Heraviyning “Bog” radifli qasidasiga javob yozgani va bu temuriy jukmdor tomonidan ma’qullangani, Boysung‘ur mirzo Muzaffar Heraviyning “Saroy” radifli qasidasiga javob aytishni so‘raganida, unga mutoyibali javob aytgani, Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlab “Suxan” radifli qasida yozgani, bu hol tarafayn davom etgani, Mavlono Lutfiy va

Alisher Navoiyga Amir Xusrav Dehlaviyning hinducha-urdu tilida bitilgan baytining ta'siri, Lutfiy hazratlarining bu tilni ham bilganliklari haqidagi tahliliy ma'lumotlar [Valixo'jayev B. 2002 (e): 99-100] olimning masalaga nihoyatda talabchanlik bilan yondashganidan dalolat beradi. Xususan, u Mavlono Lutfiyning g'azalnavislikdagi badiiy mahoratini ham nuktadonlik bilan tahlil eta olgan. Birgina besh baytdan tarkib topgan, baytlari mantiqiy va mavzu jihatidan bog'langan, shoirning "*Jonim chiqadur dard ila jononima ayting*" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalining kompozitsion yaxlitligini ta'minlovchi unsurlari, undagi oshiq, ma'shuqa va uchinchi shaxs singari obrazlarning poetik xususiyatlari, radifning ritmik takrori asosida ma'lum bir iltijo, iltimos, yordam so'rashnni ta'kidlash ohangining ifoda etishi, g'azal matnidagi 61 ta so'zdan ayrimlarining takror qo'llanilishi, bu so'zlarning baytlar kesimida miqdor jihatdan deyarli teng taqsimlanishi, ulardan birortasini qoldirish yoki tashlab ketishning imkoni yo'qligi, shoirning tazod va tanosub san'atlaridan foydalanishdagi o'ziga xos mahorati singari qator poetik xususiyatlarning tahlillar jarayonida ochib berilishi [Valixo'jayev B. 2002 (e): 99-100], shuningdek, unda g'azaldagi barcha so'zlarning ikki asosiy timsol: oshiq va ma'shuqaga bog'lanishining chizmada ifodalanishi [Valixo'jayev B. 2002 (e): 116] olimning nozik fahmi she'rshunos ekanligidan dalolat beradi.

Tabiiyki, biz "*bag'ri keng, ezgulik va ma'rifat yog'dusiga katta ishonch qo'ygan baynalmilalchi olim*" sifatida ulug'langan, teran tafakkur sohibi, benazir adabiyotshunos, akademik Botirxon Valixo'jayevning ilmiy tadqiqotlarida qo'yilgan masalani nuktadonlik bilan yechimga yo'naltirishining ayrim jihatlarini o'z idrokimiz doirasidagina ilmiy talqin etishga urinib ko'rdik. Chinakam olimga xos teran tafakkur sohibi bo'lishiga qaramay kamtarlikni surat-u siyratiga singdirgan bu ulkan adabiyotshunosning komil insonga xos qator fazilatlari bugun qo'limizda mavjud bo'lgan salmoqli ilmiy merosida o'z tajassumini topgan. Bu ilmiy merosni yoshlarimiz qalbiga singdirish ularda milliy qadriyatlarga bo'lgan ehtirom, so'zning nozik ma'nolarini teran idrok etish ko'nikmasini shakllantiradi. Aytish mumkinki, B.Valixo'jayev tadqiqotlari yetuk adabiyotshunos olimlar-u shoir va yozuvchilarni kamolga yetkazishda chinakam yordamchi bo'la oladi. Biroq ular adadining nihoyatda kamligi undan oz miqdordagi soha vakillari va ayrim talabalargina foydalanish imkoniyatini hosil qilgan. Bu tadqiqotlarni ko'p nusxada chop etish, ularning electron nusxalarini

yaratish nuktadon olimning nomini abadiyatga muhrlash nuqtayi nazaridan ham, undan bahra olish nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir.

### **Adabiyotlar:**

1. Валихўжаев Б. 2002 (а). Ўзбек адабиёти тарихи (XV асрнинг иккинчи ярми) 1-қисм. Алишер Навоий номидаги Самарқанд давлат университети.
2. Валихўжаев Б. 2002 (б). Ўзбек адабиёти тарихи (XV асрнинг иккинчи ярми) 2-қисм. Алишер Навоий номидаги Самарқанд давлат университети.
3. Валихўжаев Ботирхон ва Қобилжон Тоҳиров. 2002. Ўзбек адабиёти тарихи (XVI аср). Алишер Навоий номидаги Самарқанд давлат университети.
4. Валихўжаев Б. 2002 (д). Мумтоз сиймолар. I жилд. Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.
5. Valixo‘jayev B. 2002 (e). Mumtoz siymolar. II jild. Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti.
6. Воҳидов Р. 2005. Самарқанднинг илмий виждани. Тошкент: Фан.

*Бадиа Муҳиддинова,  
Ш.Рашидов номидаги СамДУ доценти, ф.ф.н*

## **ХОЖА АҲРОРИ ВАЛИ – ВАСЛИЙ САМАРҚАНДИЙ ВА БОТИРХОН ВАЛИХЎЖАЕВ НИГОҲИДА**

Президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганлариdek, «Маънавий қадриятларимиз, адабиёт ва санъатимизни чуқур ўрганиш ва улардаги ибратли жиҳатларни халқимиз ва айниқса, ёшлигаримизни тарбиялашга йўналтириш мухим вазифалардандир».[1] Шу боис, маънавий қадриятларимизни тиклаш, ўзликни англаш миллий ғоямизнинг, давлатимиз сиёсатининг асосий йўналишига айланди. Шу жиҳатдан қараганда, бадиий асарларни адабиётшуносликда янгича тамойиллар асосида ўрганиш мухим вазифалардан бири ҳисобланади.

## УСТОЗНИ ЁД ЭТИБ

Рустам Халмуродов.	Валийсифат олим эди.....	3
М.Муҳиддинов.	Илмга баҳшида умр.....	6
Ҳ.Умуроғли.	Қалб ҳарорати беназир домлам.....	16
Ш.Сирожиддинов.	Хоксорлик тимсоли.....	20
Ҳ.Ҳомидий.	Жабҳалар туташуви.....	26
Ж.Элтазаров.	Улуғ алломани ёдлаб.....	30
Э.Мусурманов.	Видолашув дуоси ёхуд маънавий ота....	37

## АКАДЕМИК Б.Н.ВАЛИХЎЖАЕВ ИЛМИЙ МЕРОСИННИГ ЎЗБЕК АДАБИЁТШУНОСЛИИГИДА ТУТГАН ЎРНИ

Ж.Ҳамроев. Айнишиноси донишманд ва моҳиятбин.....	46
Д.Салоҳий. Академик Ботирхон Валихўжаев илмий фаолияти тамойиллари ва тадқиқотлари майдони..	53
Ш.Ахмедова. Ўзбек адабиётшунослиги тарихининг билимдони...	62
И.Сулаймонов. Бобур Самарқанд ҳақида.....	66
H.Eshonqulov. B.Valixo`Jayev nuktadonligining ayrim jihatlari xususida.....	70
Б.Муҳиддинова. Ҳожа Аҳрори Вали – Васлий Самарқандий ва Ботирхон Валихўжаев нигоҳида.....	76
Мухитдинова Н. Қутби замон.....	81
М.Абдуллаева. Ботурхон валихўжаев – адабий таълим тадқиқотчиси.....	85
G.Rahimova. Murshidi komil tarixi akademik Boturxon Valixo`jaev talqinida.....	89
М.Хасанова. Адабий-танқидий қарашлар тараққиёти тарихининг билимдони.....	93
У.Караев. Адабий меросни тадқиқ қилиш анъаналари.....	100
Д.Мамарасулов. Самарқанд давлат университетининг иккинчи жаҳон уруши йилларидағи фаолияти тарихидан.....	106
Д.Назарова. Самарқанднинг илмий вижданi.....	114
Н.Шарипова, М. Муҳаммадиева, М. Камолова. “Ҳамса” мунаққиди.....	118
Отаёрова У. Асарлари билан барҳаёт олим.....	124

## ФИЛОЛОГИК ТАЪЛИМ ТАРИХИ МУАММОЛАРИ

M.Davronova. Sh.Xolmirzayev hikoyalarida bola ruhiyati tasviri.....	130
Д.Олимова. Сулаймон Боқирғоний ижодининг Тасаввуфий моҳияти.....	136
Г.Соатова. “Маориф ва ўқитчувчи” журналидаги насрый асарларда давр воқелигининг бадиий талқини (1925-1929-йиллардаги сонлари асосида).....	144
S.Suyunova. Munavvar Qori Abdurashidxonovning adabiyotga oid qarashlari.....	150
M.Sobirova. Xojanining “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlaridagi hikoyatlar tahlili.....	155
D.Rahmatova. Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va Hukamo” hamda Musonining “Ibtido” kitobi qiyosiy tahlili.....	159
Xakimova K. Munozara janri: kelib chiqishi, o’ziga xos xususiyatlari.....	163
Z.Suvonqulova. “Savodi ta’lim” asarining qo‘lyozma va nashriy matnlaridagi tafovutlar.....	167
D.Usmanova. Abdulla oripov she’riyatining badiiyati.....	171
А.Акрамова. Образ человека в зеркале русских фразеологических единиц и фольклоре.....	175
A.Mahmudov. O‘zbek matnshunosligida erishilgan yutuqlar.....	182

## ЎЗБЕК АДАБИЁТИ ТАРИХИ ВА АДАБИЙ ТАЪСИР МАСАЛАЛАРИ

М.Қ.Мухиддинов. Алишер Навоий ижодида ишқ талқини.....	187
Султонмурод Олим. Навоий ғазалиёти ва “Лисон ут-тайр”: Ишқ моҳияти.....	194
Э.Очилов. Мирий ижодида Навоий анъаналари.....	207
Б.Файзуллоев. Адабий таъсир ва ижодий ўзига хослик.....	212
У.Қобилов. Малаклар олами тавсифи ва уларнинг Алишер Навоий шеъриятидаги рамзий ифодалари.....	221
A.Nasirov, Z.Rahimov. Tarix haqiqati va Xoja Ahrori Valiy siymosi.....	227
Г.Холиқулова. Бобурийзода ижодкор Ҳумоюн Мирзо ва унинг адабий мероси.....	232
Фаррухбек Олим. Навоий ҳолотларида ифода, зуллисонайнлик ва кўптиллилик.....	238
С.Умарова. Суйима Ғаниева илмий фаолиятидаги асосий мезонлар.....	245

Ш.Қаххорова. Шайхул-машойих Хожа Убайдуллоҳ Ахрор Вали сұхбатлари ва Алишер Навоий Фано талқинига алоқадор ёрдамчи тимсоллар олами.....	251
Ш.Қораев. Шайхул-машойих Хожа Убайдуллоҳ Ахрор Вали сұхбатлари ва Алишер Навоий (Ботирхон Валихўжаевнинг “Хожа Ахрор тарихи” китоби маълумотлари асосида).....	257
Sh.Azimjonova. XX asr adabiyotshunosligining zakiy sinchisi.....	264
А.Раззоқов. Алишер Навоий шеъриятида “Бут” рамзининг ирфоний моҳияти.....	268
R.G`oyibboyeva. Alisher Navoiy o‘z davrining buyuk olimi.....	275
T.Dusanova. “Маҳбуб ул-қулуб” назмиётида Навоийнинг қофия ва радиф қўллаш маҳорати.....	281
Г.Тешаева. Адабий параллел: Навоий ва Аттор.....	289
Sh.Muradova. “Farhod va Shirin” dostonidagi Shirin va Mehinbonu timsollarining tarixiy va badiiy taraqqiyoti.....	294
M.Hoshimova. Muhammad Alixon ijodining o‘ziga xos xususiyatlari.....	300
F.Umurova. Bobur lirikasini o’rganilish tarixi.....	304
D.Boyoqova. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida payg‘ambarlar haqidagi qissalarning tahlili.....	309
M.Nuritdinova. Bobur armonlarining armoni.....	317
H.Nazarova. “Hayrat ul-abror” dostonida gavdalangan chin so’fiylar siymosi.....	322
M.Fayzullayev. Faxriyor she’riyatida metaforik talqinlar.....	327
G.Abdurashidova. “Qisasi rabg’uziy”dagi she’riy parchalar haqida.....	330
Jamol Kamol she’rlarida rangin tuyg’ular: Ruhiyat ifodasi.....	336
Q.Sulaymonov. “Boburnoma” asarida Husayn Boyqaro tasviri.....	339
T.Quljanova. Rabg’u’ziyning “Qisas ul-anbiyo” asarida latifa janrining o‘ziga xosligi.....	342
F.Abdukovulov. Fitratning adabiy faoliyati.....	345
D.Azizova. Xalq og`zaki ijodi va realizmning Ilk bosqichlarida manfaatli nikoh motivi.....	351
G.Avg‘onova. Mumtoz adabiyotda janrlar taraqqiyoti.....	357

## АДАБИЙ МАТНШУНОСЛИК: НАШР, ИЛМИЙ ТАҲЛИЛ ВА ТАЛҚИН

Ж.Жўраев. Абдулла Гулшанийнинг Самарқанд ва Самарқандликларга бағишиланган муаммо шеъри ҳақида.....364

Sh.Nuriddinov Komil Xorazmiy devoni: asliyat va nashrlardagi matniy tafovutlar.....	370
H.Eshonqulov., Nabijonov M. Mahmud Ali Kadariyning “Najh ul-farodis” asari – noyob mumtoz adabiy manba.....	382
J.Oripov. Durbek “Yusuf va Zulayho” dostonining Hazora nusxasi haqida ayrim mulohazalar.....	386

## МУМТОЗ АСАРЛАР ТИЛИ ВА УСЛУБИ, ЎЗБЕК ТИЛИ ТАРИХИ МУАММОЛАРИ

X.Berdiев, С.Berdiев. Қофиянинг фонетик таркиби ва лингвопоэтик хусусиятлари (“Девону луготит турқ” материаллари асосида).....	391
F.Nurmanov. Alisher navoiy tilidagi fonetik hodisalar.....	394
I.O‘razova. XIV asrning II yarmiga oid manbalarda qo‘llangan gap qolipli frazeologizmlarning grammatik xususiyatlari.....	398

**“АКАДЕМИК БОТИРХОН ВАЛИХЎЖАЕВ ВА  
МУМТОЗ АДАБИЁТШУНОСЛИК”  
мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари  
(Самарқанд, 20.05.2022 й)**

Муҳаррир  
Мусаҳҳих  
Техник муҳаррир

О. Шарапова  
Н. Исройлов  
Б. Эгамбердиев

**ISBN 978-9943-8227-0-2**

*2022 йил 15 майда ноширлик бўлимига қабул қилинди. 1  
2022 йил 18 майда оригинал-макетдан босишига рухсат этилди.  
Бичими 60x84/ 1,16. «Times New Roman» гарнитураси. Офсет қозози.  
Шартли босма табоги 22,75 Нашриёт ҳисоб табоги 23,0.  
Адади 50 нусха. 97-буюртма.*

---

**СамДУ таҳририй-нашриёт бўлимида чоп этилди.  
140104, Самарқанд ш., Университет хиёбони, 15**

